https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi
Otaxonova Nodira Farxod qizi
+998905575845
notaxonova46@gmail.com

O‘ZBEK TILIDAGI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

(G‘afur Shermuhammadning “Quduq” qissasi misolida)

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvokulturologiya fanining vujudga kelishi, tarixi, rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar bilan bog‘liq ayrim masalalar ham muhokama qilinadi va G‘afur Shermuhammadning “Quduq” qissasi asosida o‘zbek tilidagi paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganiladi. Unda ayrim paremalarning semantik tabiati alohida izohlaninb, ularning mazmunini yoritib berish masalasi tadqiqqa tortilgan.

Kalit so‘zlar: Paremiologizm, maqol, matal, naql, aforizm, badiiy asar, badiiy nutq, paremiologik birliklar, lingvokulturologiya, paremiologiya, lingvokulturema, madaniyat, nutq, lingvoklturologik tahlil, barqaror birikmalar, badiiy uslub, publitsistik uslub, so‘zlashuv uslub, o‘z va ko‘chma ma’no, mantiqiy fikrlash, paremalar, mentalitet, madaniy fenomeni, antropologik pradigma, nutq jarayoni.

Abstract: This article discusses some issues related to the emergence, history, and development of the science of linguoculturology, and studies the linguoculturological characteristics of paremiological units in the Uzbek language based on the story “Well” by Gafur Shermuhammad. It separately explains the semantic nature of some paremiological units and examines the issue of clarifying their content.

Keywords: Paremiologizm, proverb, saying, aphorism, work of art, artistic speech, paremiological units, linguoculturology, paremiology, linguoculturema,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

culture, speech, linguoculturological analysis, stable combinations, artistic style, journalistic style, colloquial style, inherent and portable meaning, logical thinking, paremiological units, mentality, cultural phenomenon, anthropological paradigm, speech process.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с возникновением, историей и развитием науки лингвокультурологии, а также исследуются лингвокультурологические характеристики паремиологических единиц узбекского языка на примере повести Гафура Шермухаммада «Колодец». Отдельно раскрывается семантическая природа некоторых паремиологических единиц и рассматривается вопрос уточнения их содержания.

Ключевые слова: Паремиологизм, пословица, поговорка, афоризм, художественное произведение, художественная речь, паремиологические единицы, лингвокультурология, паремиология, лингвокультурема, культура, речь, лингвокультурологический анализ, устойчивые сочетания, художественный стиль, публицистический стиль, разговорный стиль, имманентное и переносное значение, логическое мышление, паремиологические единицы, менталитет, культурный феномен, антропологическая парадигма, речевой процесс.

KIRISH.

Lingvokulturologiya o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi obyekti shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifk qoidalarini o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘tgan XX asrning 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya- lingvomadaniaytshunoslik paydo bo‘ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o‘zaro bog‘liqligidan paydo bo‘lgan fan bo‘lib, u xalq madaniyatini paydo bo‘lishini tilda ifodalanishini va mujassamlanishini tadqiq etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

“Lingvokulturologiya” atamasi frazeologik maktab asoschisi V.N. Teliya va V.V. Vorobyov, V.A. Maslova va boshqalaning ishlarida ko‘rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F. Gumboldtga bori taqalishini ta’kidlaydilar[11]. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U. Puell, F. Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyanm, A.Vrjbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligida yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: “Lingvokulturologiya inson omiliga, anoqrog‘i insondagi madaniy fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik pradignaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”. V.V Vorobyev “Lingvokulturologiya-sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo‘lib, madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ta’sirlashuvlarini o‘rganadi.

Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1.Lingvokulturologiya yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladigan alohida sotsial guruh.

2.Diaxronik lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rganadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3.Qiyosiy lingvokulturologiya. Lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullanadi.

4.Tavsifiy lingvokulturologiya. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar bilan samarali. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlovchilar nuqati nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega.

5.Lingvokulturologik leksikografiya. Lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi. Lingvokulturologiyaning bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo‘nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda.

NATIJALAR.

Ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi.

Barqaror birikmalar sirasiga frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar kiradi.

Maqol, matal va aforizmlar **paremalar** deb ham yuritiladi. Paremiologiya frazeologizm bilan chambarchas bog‘liq sohadir .

Maqol, matal va aforizmlar – **paremalar** quyidagi lisoniy xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. Tuzilishi va tarkibi barqaror, quyma, **qotib** qolgan qolda bo‘ladi.
2. Ma’no butunligiga ega.
3. Nutqda o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llaniladi.
4. Tuzilishiga ko‘ra birikma va gap shaklida bo‘ladi.
5. Xalq donishmandligi, mantiqiy fikrlash mahsuli.
6. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjud bo‘lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
7. Fikrni ta’sirchan, mazmunli, obrazli ifodalashga xizmat qiladi.
8. So‘zlashuv, badiiy va publitsistik nutq uslublarida faol qo‘llanadi.

Grammati jihatdan gap holida shakllangan, alohida ritmik-metodik xususiyatlarga ega, xalq donishmandligi mahsuli bo‘lgan barqaror birikmalar **maqol** sanaladi. Masalan: **Mehnat, Mehnatning tagi rohat.**

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Til, falsafa va badiiy ijodning o‘zig xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Har bir tilimiz ko‘rki, mutqimiz nafosatini, aql- farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmuh tarzining bamisoli bir oynasidir. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san`atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamsa, Sadriddin Ayniy , Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek , G‘afur G‘ulom va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlai sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar keltirilgan.

Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta’bir joiz bo‘lsa, folkloristik nuqatyi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo‘lsa-da , munosabatda bo‘lingan hollarga duch kelamiz.XI asrning ulkan tilshunos olimi , folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning toplovchilik faoliyati va uning “ Devoni lug‘otit turk” asari bunga yorqi misol bo‘la oladi. “ Devon” da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matalar keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o‘zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta’kidlab o‘tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o‘zining “ Zarbulmasal” asarida 400 da ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir.

MUHOKAMA.

O‘zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalaga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H. Vembergerning 1876-yilda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Leyspigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya- lug‘atiga o‘zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo‘lib, ularning nemis tiliga tarjimsi ham berilgan . Shundan keyin birin ketin N. Ostounov(1895) B. Rahmonov (1924), Sh. Jo‘rayev (1926), O‘. Azimov, O‘.Xolmatov(1941), M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov(1958, 1960, 1965, 1978) kabi folklorshuoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to‘plamlari nashr etildi. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy – akademik nashrini tayyorlash bo‘ldi. 1987-1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan bu to‘plam o‘n uch mingga yaqin xalq maqolini o‘z ichiga oladi.

Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat`iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so‘zga e’tibor berish kerak. Ularda shunday so‘zlar borki, bu so‘zlar tarixan butunlay boshqa ma’nolarni anglatgan. Masalan, **tuz** so‘zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so‘z **to‘g‘ri, odobli; dala, tekislik** ma’nolarini anglatganva faqat maqollardagina saqlanib qolgan: **Qiz saqlasang, tuz saqla. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo‘l.** Shuningdek, **mehnat** so‘zining **azob-uqubat, baxtsizlik** ma’nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin: **Mehnat ham egiz-egiz, Davlat ham egiz-egiz.**

Grammati jihatdan gap holida shakllangan, hayotiy voqelikni ixcham, lo‘nda, ta’sirchan ifodalovchi xalq donishmandligi mahsuli bo‘lgan, ko‘chma va o‘z ma’nosida qo‘llanuvchi barqaror birikmalar matal deyiladi. Masalan, Tuyaning dumi yerga tekkanda, Qizil qor yoqqanda kabi.

Hikmatli so‘zlar(aforizmlar) – grammatik jihatdan gap holida shakllangan, aniq, ixcham, chuqur mazmunli ma’lum shaxs tomonidan yaratilgan barqaror birikmalar. Masalan, ilmning qudrati, ulug‘ligi, foydasi haqidagi hikmti so‘zlar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ilm hikmatni keltirib chiqaradi. Hikmat- falsafa esa ilm sirlarini butun dunyoga yoyadi (Abdulqodir Bedil). Ilm insonlarning hayoti, rahbari, najotidur.

Paremiologik birliklar- qisqa lo‘nda va badiiy shaklda berilgan xalq donishmandligining umumlashma ko‘rinishidir. Ular vakillik, umumlashma obrazlilik va ma’naviy mazmunning chuqurligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, maqol, matal va aforizmlar tilda nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki xalq donishmandligining ko‘zgusi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Mana shunday asarlardan biri G‘afur Shermuhammadning “Quduq” qissasidir .

Ushbu asarda yozuvchining badiiy mahorati va lingvistik salohiyati ochib berilgan. Jumaladan, mazkur qissadagi “Suv bergan savob bo‘lar, suv bermagan kabob bo‘lar”, “Ishim bitdi, eshagim suvdan o‘tdi”, “Yaxshi niyat-yorti davlat”, “Ko‘pdan quyon qochib qutulmas” kabi maqollari asarning leksik jihatdan mukammal ekanligini tasdiqlaydi.

1. “- Suv bergan savob bo‘lar, suv bermagan kabob bo‘lar” deyishgan – dedi Qobil cho‘pon mug‘ombirgina iljayib(“Quduq” qissasi 2-bet). “Suv bergan savob bo‘lar, suv bermagan kabob bo‘lar”- ushbu maqol yaxshilik qilishning savobli ekani, baxillik esa odamni past qilishi haqida.

Maqolni lingvistik jihatdan tahliliga kelsak, ushbu maqolda suv bergan junlasi otlashgan sifatdosh, suv bermagan birikmasi ham otlashgan sifatdosh har ikkalasi ham ega vazifasida qo‘llangan, shuningdek ushbu maqol 2 komponentli maqol hisoblanadi.

2. “ Ishim bitdi, eshagim suvdan o‘tdi” Og‘ziga kuchi yetmaganlar gpiraversin! (“Quduq” qissasi 3-bet). **“Ishim bitdi, eshagim suvdan o‘tdi”** – bu o‘zbek xalq maqoli bo‘lib, foydaparastlik, vaziyatdan faqat o‘z manfaati uchun foydalanish ish bitgandan keyin boshqalarga e’tibor bermay qo‘yish holatini tanqid qiladi.

Bu maqol uch mustaqil fikrni ifodalovchi , uch kmponentli murakkab fikrlar birikmasidir. Birinchi qism (“Ishim bitdi”) va ikkinchi qism (“eshagim suvdan o‘tdi”) sodda gaplar bo‘lib har ikkalasi ham o‘tgan zamonda ifodalangan fe’l

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

kesimga ega. Bu yerda ishim va eshagim so‘zlari egalik affiksi (-im) qo‘shilishi bian yasalmagan, balki tuzilishiga ko‘ra tub so‘zlarga egalik affiksi qo‘shilgan otlardir.

3. “Yaxshi niyat-yorti davlat” deb bekorga aytishganmi eskilar.

-Iloyim, iloyim...(“Quduq” qissasi 6- bet). “Yaxshi niyat- yorti davlat”- maqol odamlarni ezgulik qilishga, ijobiy fikrlashga pok niyat bilan yashashga undaydi.

Bu maqol bir kompnentli sodda yig‘iq gap bo‘lib, fe’l kesim tushib qolgan (“dir” kesimi nazarda tutiladi). Yaxshi niyat birikmasi gapning egasi (sifat + ot birikmasi) bo‘lib kelgan. Yorti davlat birikmasi esa ot kesim vaifasida qo‘llanilgan. Maqoldagi barcha so‘zlar (yaxshi, niyat , yorti, davlat) tub so‘zlardir. Kesim ot bilan ifodalanganligi sababli, maqol doimiy holat (hozirgi zamon) ma’nosini ifodalaydi.

4. “Ko‘pdan quyon qochib qutulmas”- deb bekorga aytishmagan ekan. Hasharchilar ertadan- kechgacha tinimsiz ishlab, nihoyat uchinchi kun kechga yaqin quduqdan suv chiqarishdi (“Quduq” qisasi 24-bet). “Ko‘pdan quyon qochib qutulmas” maqoli insonlarni birlikka va jamoaviy harakatga chorlaydi.

Bu maqol bir komponentli sodda yoyiq gap bo‘lib, fe’l kesimli gap, quyon so‘zi gapning egasi (ot) vazifasida kelgan. Ko‘pdan so‘zi chiqish kelishigida bo‘lib, hol bilan kelgan, qochib qutulmas birikmasi kesimdir. Kesim tarkibida qutulmas so‘zi, unga -mas (hozirgi –kelasi zamon inkor affiksi) qo‘shilgan . Kesim hozigi-kelasi zamon inkor shaklida ifodalangan.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, paremiologik birliklar xalq tafakkuri, madaniy qadriyatlari va tarixiy jihatdan tajribasining betakror mahsulidir.

G‘ofur Shermuhammadning “Quduq” qissasi ham ayni shunday paremiologik birliklar keng va mohirona qo‘llanilgan asarlardan biridir. Ular lingvokulturologik jihatdan o‘rganilganda tilning nafaqat grammatik yoki leksik tizimi, balki xalqning ichki dunyosi, mentaliteti, milliy qadriyatlari va madaniy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xotirasi chuqur namoyon bo‘ladi. Paremiologik birliklarni o‘rganish tilning ichki mohiyatini, xalqning tafakkurini anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maslova V.A.Lingvokulturologiya : Ucheb Posobie.- M:Academia, 2001-208s

2. R. R Sayfullayeva , B.R.Mengliyev, M.M. Abuzalova, D.N. Yo‘ldosheva “Hozirgi o‘zbek tili” Toshkent 2023.

3. G‘afur Shermuhammad “Quduq” Toshkent 2013.

4. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab ...//O‘zbek tili va adabiyoti .- Toshkent .2012.-B.3-16.

5. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi.- M:1997

6. Shavkat Rahmatullayeva , Nizomiddin Mahnova , Iqbol O‘rozova, Kamol Rixsiyeva , “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” Toshkent .2022.

7. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyev G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M, “Hozirgi o‘zbek tili” Toshkent 2009.

8. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent. 1978

9. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami / Nargiza Erkaboyeva.- Toshkent “Yosh kuch”, 2021 y, 688-bet.

10. MAQOLLAR VA ULARNING BADIIY USLUBDAGI GRAMMATIK TAHLILI (G‘afur Shermuhammadning “Quduq” qissasi misolida) Baxtiyorova O‘g‘iljon Usmon qizi .

11. V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to‘g‘risida qarang .Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik .-Toshkent: Akasemik , 2012.

12. LINGVOKULTUROLOGIYA FANINING YUZAGA KELISH TARIXI Alimadon Alisher o‘g‘li Odilov.